

YETUKLIK SHUKUHI

Maqsud Asadov

*Ilm-fan bo‘yicha direktor o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor*

Rahmatulla Barakayev – filologiya fanlari nomzodi (1994), professor (2022), 2-darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi (2000), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, o‘zbek bolalar adabiyotining yirik tadqiqotchisi, zamonaviy o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon sohasida taniqli adabiyotshunos olim.

R.Barakayev 1954-yil 1-fevralda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida tavallud topgan. Padari buzrukvorlari Baraka bobo madrasa ta’limini olgan, nihoyat darajada ma’rifatli, xususan, Sharq mumtoz adabiyotini mushohada holi bilan teran anglaydigan zakiy inson bo‘lgan. Baraka bobo bilan qo‘shni Shofirkon tumanida, nevaralari uylanish to‘yida uchrashib, davradagi har bir holatni mohirlik ila Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Boborahim Mashrablar mumtoz turkiy va forsiy she’riyatidan parchalar bilan izohlagan mulla boboning savqi tabiiylariga qoyil qolgan atoqli navoiyshunos olimi Suyima G‘aniyeva: “Men Rahmatulla adabiyotshunoslikka qayerdan qiziqib qolgan desam, buning asosiy sababi mulla Baraka bobo ekanlar-ku” deya lutf qilgani bejiz emas.

U 1971 – 1975-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ning o‘zbek va qozoq filologiyasi fakultetida tahsil oladi. R.Barakayev adabiyotshunoslik masalalariga talabalik yillariyoq qiziqqa boshladi. Yetuk navoiyshunos Natan Murodovich Mallayev tirishqoq shogirdining adabiyotga bo‘lgan muhabbati, e’tibori yuqoriligini sezib 4-bosqichda o‘qib yurgan paytlaridayoq uni o‘zi mudirlik qilayotgan kafedra huzuridagi “Alisher Navoiy” o‘quv muzeyiga ishga qabul qiladi. 1975-yil aprelida R.Barakayev Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan talabalarning an’anaviy respublika olimpiadasida ustoz N.Mallayev ilmiy rahbarligida yozgan “Navoiy g‘azallarida badiiy san’atlar” mavzuidagi ma’ruza bilan qatnashib, 1-o‘rinni egallaydi va Maorif vazirligining Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlanadi.

U oliygohdagi o‘qishni tugallaganidan keyin 1975 – 1980-yillarda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida o‘rta maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, tuman xalq ta’limi bo‘limi uslubchisi vazifalarida faoliyat yuritadi. E’tiborlisi, ilmga bo‘lgan intilish R.Barakayevni sira ham tark etmaydi. “Paxta uchun kurash” nomli tuman gazetasida turli yozuvchi-shoirlarning yubileylari munosabati bir qator ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qiladi.

Ilm ishtiyoqi, jo‘shqin va qaynoq muhitga talpinish hissi uni baribir poytaxtga – Toshkentga yetaklaydi. 1980-yil mehnat ta‘tili paytida Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga kelib, o‘zidan bir bosqich avval oliygohni tamomlagan qadrdon do‘sti, bugungi kunda taniqli adabiyotshunos Qurdoş Qahramonovdan “Bolalar adabiyoti” bo‘limida bir laborantlik o‘rni bo‘sh turganini bilib oladi. Q.Qahramonov uni o‘sha paytdagi bo‘lim mudirasi, jonkuyar olim, ayniqsa, yoshlarga juda mehri baland bo‘lgan bag‘rikeng inson Malohatxon Abdurahmonova huzuriga olib kiradi. R.Barakayevning eski o‘zbek yozuvini puxta bilishi, qo‘lyozma va toshbosma manbalarni sira qiynalmay o‘qiy olishi, mumtoz adabiyotga bo‘lgan kuchli ishtiyoqini sezgan M.Abdurahmonova bo‘limda bolalar adabiyotining XX asr boshlarigacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari, tadrijiy takomili, o‘ziga xos xususiyatlarini puxta biladigan mutaxassis yo‘qligini aytib, uni mazkur davr bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishga astoydil da‘vat qiladi. Shu maqsadda R.Barakayevni “O‘zbek adabiyoti tarixi” bo‘lim mudiri, mashhur navoiyshunos, professor A.Hayitmetovning suhbatiga olib kiradi. Domlaga yosh iqtidor egasini yaqindan tanishtirib, u kishidan ilmiy rahbar bo‘lish roziligini ham oladi. Shu tariqa, R.Barakayev 1980-yildan O‘zR FA Til va adabiyot institutiga laborant sifatida ishga qabul qilinadi. Ana shu paytdan boshlab R.Barakayevning O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutidagi uzoq, sermashaqqat, biroq yorqin va samarali faoliyati boshlanadi.

Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Munavvar qorilarning “yangi usul” (“usuli jadida”) maktablari uchun tartib bergan alifbo va o‘qish kitoblari bilan yaqindan tanishishni boshlagan yosh tadqiqotchi bolalar adabiyotining xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va tarjima adabiyotiga uyg‘un jihatlari alohida e‘tibor beradi. U ilm yo‘lidagi o‘zining dastlabki qadamini bolalar uchun g‘oyatda foydali bo‘lgan kitoblarning nashr ishlaridan boshlaydi. Ubayd Zokoniyning “Mushuk ila sichqon qissasi”ni nashrga tayyorlab (1988), “Yulduzcha” nashriyotida chop ettiradi. Bolalarga doir kitoblarning nashr qilinishi nafaqat bolalar kitobxonligi, savldxonligi, balki bolalar adabiyotiga oid tadqiqotlar rivoji uchun ham muhim ishlardan ekanini juda yaxshi anglagan olim bu yo‘nalishda, ayniqsa, katta ishlarni amalga oshiradi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”, Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” singari asarlaridan tanlab olib saralangan adabiy parchalarni “Bobolardan bolalarga” nomi bilan 1988-yilda “Yulduzcha” nashriyotida chop ettiradi. Kitob juda mashhur bo‘lib ketadi. Unga yozilgan “Hayotbaxsh nasihatnomalar” sarlavhali mufassal so‘zboshi va ilova tarzida

keltirilgan lug‘at qismi esa R.Barakayevning bolalar adabiyotini o‘rganish yo‘lida boshlangan sa’y-harakatlari dadil va o‘ktamligini ham yaqqol ko‘rsatadi. Oradan bir yil o‘tib, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Aql chirog‘i” nomi bilan bolalarga bag‘ishlangan asarlaridan iborat kitobi nashr etilishida ham R.Barakayevning xizmatlari nihoyatda kattadir.

Bolalarga oid asarlarni nashrga tayyorlab, o‘zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitishga ulkan hissa qo‘shgan R.Barakayev adabiyotshunos sifatida ham o‘z so‘zini baralla ayta oldi. Ayniqsa, zamonaviy bolalar adabiyotining tamal toshini qo‘ygan yetuk adib va pedagog Abdulla Avloniy ijodiy merosi olim uchun monografik tadqiqot obyektiga aylandi. Obrazli tafakkur imkoniyatlari asosida bolalar ongu tasavvuriga vatanparvarlik, jasorat, sadoqat, iymon, oqibat kabi chin insoniy fazilatlarini ta’sirchan tarzda singdira olgan Abdulla Avloniy bolalar adabiyotini shakl, mazmun va ifodada yuksak bosqichga olib chiqqani ma’lum. R.Barakayev buni 1994-yilda O‘zR FA Adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) huzuridagi Ixtisoslashgan ilmiy kengash yig‘ilishida, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunoslari qarshisida “XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” mavzuidagi 10.01.03 – O‘zbek adabiyoti tarixi ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan nomzodlik dissertatsiyasi orqali atroflicha ochib berdi. Himoya jarayoni, dissertant va dissertatsiya haqida iliq fikrlar bildirildi, samimiy e’tiroflar aytili.

R.Barakayev institut tomonidan beriladigan barcha topshiriqlarni bekamu ko‘st, sidqidildan bajarishi, ilm-fan yo‘lidagi fidoyiligi, g‘ayrati va shijoati tufayli 1994-yilda institut ilmiy kotibi lavozimiga tayinlandi. Oz emas, ko‘p emas, mazkur lavozimda u 24 yildan oshiqroq vaqt mobaynida ishladi. Institut ma’naviy, ilmiy muhitining rivojida, ayniqsa, ilm olamiga kirib kelgan yoshlarning aspirantura, doktorantura bosqichlaridagi tahsil jarayonlarida ham jonkuyar va talabchan R.Barakayevning muhim o‘rni borligini bugun nafaqat institut jamoasi, qolaversa, respublikamizda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanayotgan ko‘plab insonlar hurmat bilan ta’kidlashadi.

R.Barakayev 2018 – 2021-yillarda XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limi mudiri sifatida ishlab, bo‘limning ilmiy salohiyati, bajarilayotgan ishlar sifatini oshirish borasida ham ko‘plab ijobiy ishlarni amalga oshirdi.

R.Barakayevning mehnat faoliyati xususida gap borar ekan, bevosita filologiya sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularning yuzaga chiqishi bilan bog‘liq jarayonga alohida diqqat qaratishimiz lozim. U uzoq yillardan buyon institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashda ilmiy kotiblik qiladi. Aslida, ilmiy kotib degani bu ilmiy kengash a’zolari va dissertantlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik, dissertatsiya himoyasi bilan bog‘liq barcha jarayonlar

uchun hammadan ko‘ra ko‘proq mas‘ul shaxsdirki, R.Barakayevning ko‘p yillik tajribasi bu ishda ham qo‘l kelayotgani ayni haqiqat. Oqni oq, qorani qora deyish uchun jur‘at, salohiyat va jasorat ham, albatta, talab etiladi. Agar bularning qaysidir biri bo‘lmasa yoki bo‘lganida ham biroz kemptiklik sezilsa, inson shaxsiyatining asl muvozanati bir qadar izdan chiqadi, haqqoniyatni aytishga o‘jizligi sezilib qolaveradi. R.Barakayevning irodasi o‘jizlikdan yiroq, tiynatiga ta‘ma buluti sira soya solmagan. U dissertatsiyani himoya bosqichlariga olib chiqishda talabgorlarga beminnat ko‘makdosh bo‘lar ekan, o‘zining xolis yordami, qimmatli maslahatlarini hech ham ayamaydi. Aytish mumkinki, institut adabiyotshunoslarining ilmiy darajaga ega bo‘lishlarida, qolaversa, institut ilmiy salohiyatini yuksaltirishda R.Barakayevning ham o‘ziga xos hissasi bor, albatta.

R.Barakayev jamoatchilik ishlarida qanchalik faol bo‘lsa, ilmda ham shunchalar qat‘iyatli va sermahsul. Diqqatga sazovor jihati shundaki, olimning tadqiqotlarida o‘zbek bolalar adabiyoti sarchashmalari Sharq mumtoz adabiyotidagi “pandnoma” asarlardan ibtido topgani muayyan izchillik, xronologik ketma-ketlik asosida atroflicha yoritilgan. R.Barakayevning qiziqish doirasi nihoyat darajada keng, faoliyat yo‘nalishi esa serqirra. U zamonaviy bolalar adabiyoti, xususan, she‘riyati bo‘yicha ham g‘oyatda muhim izlanishlar olib bordi. Ayniqsa, o‘tgan asrning saksoninchi yillarida bolalar adabiyoti xususida bo‘layotgan turli mavzulardagi bahs-munozaralarda ishtirok etib, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining 1986-yil 21-noyabr sonida “Badiiy tarjima – ijodkorlik”, “Yoshlik” jurnalining 1988-yil 11-sonida “Dilda darding bo‘lmasa...” maqolalarini chop ettirdi. Jiddiy adabiy tahliliy, tanqidiy mulohazalardan iborat bu maqolalarda bolalar adabiyoti, tanqidchiligi va tarjimachiligi oldida turgan dolzarb muammolar qalamga olinadi. Jumladan, bu paytga kelib bolalar adabiyoti shunchaki davr mafkurasiga xizmat qiladigan asarlar va bolalar adabiyoti yetakchi namoyandalarining “to‘ldirilgan” va qayta nashrlaridan iborat bo‘lib qolgani, adabiy tanqid bolalar adabiyoti bilan deyarli shug‘ullanmayotgani, bolalar adabiyoti tarjimachiligi o‘rtamiyona ahvolga tushib qolgani kuyunchaklik bilan adabiy va ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola etiladi.

R.Barakayevning 1997-yilda chop etilgan “Jonajonim, she‘riyat” risolasi o‘tgan asrning 80 – 90-yillari bolalar she‘riyatidagi ijodiy-uslubiy izlanishlar tadqiqiga bag‘ishlangani bilan e‘tiborlidir. Risolada ushbu davr bolalar she‘riyatining yetakchi namoyandalaridan Tursunboy Adashboyev va Anvar Obidjon, o‘z ovozi bilan adabiyotga yangi ruh olib kirayotgan Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajab kabi shoirlar ijodi tahlili asosida so‘nggi davr bolalar she‘riyatidagi g‘oyaviy-badiiy izlanishlar, poetik yangilanish jarayonlari ko‘rsatiladi.

Muallif tomonidan H.Imonberdiyevning “Alla” she’ri, T.Adashboyevning “Qishloqdagi farzandlarimga” turkumidagi qizlarning otalariga va otaning qizlarga maktublaridan iborat she’rlari, Anvar Obidjonning “Kumush uy” turkumidagi “Yaylovni sog‘ingan qo‘y”, “Yantoqlar”, “Uchinchi polapon”, Dilshod Rajabning “O‘zbek” kabi nazm namunalari tahlili misolida o‘zbek bolalar she’riyatida birinchi marta bolalarni ma‘nan uyg‘onishga, ruhan bardamlikka, erku hurriyat, birdamlik tuyg‘ularini chuqur anglashga chorlovchi nekbin kayfiyatdagi she’riyat paydo bo‘lgani haqli e’tirof etiladi. Olimning sinchkovlik bilan kuzatishlari bolalar she’riyatimizda ijtimoiy kurashchanlikka undovchi milliy o‘ziga xoslik maydonga kelganini tasdiqlaydi. Shu boisdan bu risola davlat Matbuot qo‘mitasining “Bolalar uchun yozilgan eng yaxshi asarlar” tanlovi g‘olibi ham bo‘lgani ham bejiz emas.

R.Barakayevning ilmiy izlanishlari T.Adashboyev va Anvar Obidjon ijodining o‘zbek bolalar she’riyatida nafaqat mavzu yangilanishi, balki badiiy mahorat nuqtayi nazaridan ham oldinga qo‘yilgan sezilarli yangi qadam ekanligini to‘la isbotlaydi. Olim dastlab o‘z tadqiqotlari bilan buni ko‘rsatib bergan bo‘lsa, keyinroq mavzuni monografik tarzda o‘rganish uchun shogirdlariga tavsiya qiladi. Natijada o‘zbek bolalar she’riyatini yangi o‘zanga boshlagan yetuk shoirlar ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan yaxshigina ikki nomzodlik dissertatsiyasi paydo bo‘ladi.

Ayniqsa, bolalar adabiyotining yirik vakili Tursunboy Adashboyevning ijodiy fenomeni, asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari o‘rganilgan “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (Toshkent: Akadernashr, 2014; hammmualliflikda) monografiyasi ijodkor mahorati ilmiy jihatdan atroflicha asoslab berilgan muvaffaqiyatli tadqiqotlardan biridir.

R.Barakayev XX asr o‘zbek bolalar she’riyatining XX asr boshidan bugungi kungacha bo‘lgan taraqqiyot tamoyillari, yorqin belgilarini o‘rganar ekan, har bir davr bolalar she’riyatida alohida o‘rin tutgan shoirlar ijodini tadqiq etishda izchillikka qat’iy amal qiladi. G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Miraziz A‘zam singari katta va o‘rta avlod vakillarining o‘zbek bolalar she’riyati rivojida tutgan o‘rni olimning turkum maqolalarida aks etgan. Ana shu izlanishlardan kelib chiqqan xulosalar Qudrat Hikmat ijodining XX asr 50-yillari o‘zbek bolalar she’riyatida tutgan mavqeini ko‘rsatib berishga qaratilgan yana bir dissertatsiyani navbatdagi shogirdiga tavsiya qilishiga sabab bo‘ldi.

Umuman, bolalar adabiyoti, uning musaffo tabiati, bolalikning beg‘ubor olamiga shaydolik R.Barakayevning ilmiy tadqiqotlarida yaqqol bo‘y ko‘rsatib turadi. Olimning “Sharq yulduzi” jurnalining 1988-yil 10-sonida chop etilgan “Bolalikning tiyrak nigohi” maqolasida viloyatlarda ijod qilayotgan va bolalar she’riyatiga ishonch bilan kirib kelayotgan farg‘onalik Vali Ahmadjon,

samarqandlik Xudoyberdi Komilov, xorazmlik Sodiqjon Inoyatov va Erpo‘lat Baxt, hali maktab o‘quvchisi bo‘lgan Orif To‘xtashlarning she‘riy mashqlari haqida chuqur mamnuniyat bilan to‘xtalib o‘tilgan edi. Bugunga kelib, yuqorida nomi tilga olingan qalamkashlar chinakamiga o‘zbek bolalar she‘riyatining zabardast namoyandalariga aylangani ustoz adabiyotshunosning ularga bildirgan ishonchi naqadar asosli bo‘lganini tasdiqlaydi.

R.Barakayev xalqimiz ma‘naviy qadriyatlariga hamohang bo‘lgan adabiyotlarni nashr qilish va keng kitobxonlar ommasiga yetkazish borasida ham samarali ishlar qilgan. 2013-yilda Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari (“Toshkent islom universiteti” NMB) lug‘atlar va so‘ngso‘z bilan chop etildi. Kitob milliy, madaniy, adabiy, diniy qadriyatlarni tiklash borasida yosh avlod ma‘naviy kamolotida alohida o‘rin tutadigan asar sifatida e‘tirofqa sazovor ko‘rildi va 2018-yilda yirik adadda – 20000 nusxada qayta nashr qilindi.

R.Barakayev uzoq yillar ilmiy faoliyatini pedagogik jarayon bilan birgalikda olib borgan. 1985 – 90-yillarda Rus tillar institutida, 1990 – 1996-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida, 1999 – 2006-yillarda Sharqshunoslik institutida talabalarga tarjima nazariyasi, amaliyoti va tarjima tarixi fanlaridan dars bergan.

Ayonki, darslik yozish mashaqqatli ish. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun yaratilajak darsliklar yanada ko‘proq mas‘uliyat va mehnat talab qiladi. Bu borada fanning mohiyatini mukammal anglashdan tashqari, ilmda yuzaga kelgan yangi tadqiqotlarga munosabat bildirish va talaba dunyoqarashi, saviyasi hamda imkoniyatlaridan kelib chiqib har bir mavzuga astoydil yondashish ham talab etiladi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, barcha olimlar va pedagoglar ham darslik yaratishga jur‘at qilavermaydi. R.Barakayevning 2019-yilda chop etilgan “Bolalar adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi (Buxoro: Durдона, hammualliflikda) Oliy ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining Boshlang‘ich ta‘lim va Maktabgacha ta‘lim fakultetlarida o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. 2021-yilda ushbu kitobning qayta ishlangan va to‘ldirilgan shakli Oliy ta‘lim vazirligi (hozirgi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) tomonidan oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya qilindi. Ushbu darslikdan ayni paytda o‘quv jarayonlarida foydalanib kelinmoqda.

R.Barakayev bolalar adabiyoti masalalari bilangina shug‘ullanib qolmay, mumtoz adabiyotimizning yorqin vakillari ijodi borasida ham muhim maqolalar yozdi. Jumladan, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy she‘riyati va uning jahonshumul ahamiyati xususidagi ilmiy maqolalari navoiyshunoslikda alohida qimmatga ega.

R.Barakayev uzoq yillardan buyon xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining dolzarb muammolari haqida turli mavzularda ma’ruzalari bilan faol ishtirok etib keladi. Xususan, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston davlatlarida bo‘lib o‘tgan qator xalqaro anjumanlarda ham qatnashib, o‘zbek adabiyotshunosligida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib qilgan.

R.Barakayev – “O‘zbek tili va adabiyoti” hamda “Adabiy meros” jurnallari tahrir hay’ati a’zosi. U mazkur jurnallarda e’lon qilinadigan adabiyotshunoslikka oid maqolalarning ilmiy saviyasi, dolzarbligi va yangiligi uchun mas’ul bo‘lgan olimlardan biridir.

R.Barakayev shogirdlarning sevimli ustoz, talabchan ilmiy rahbari, ilm-fan fidoyisidir. Uning rahbarligida ayni paytgacha o‘nga yaqin fan nomzodi va falsafa doktori dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan bo‘lsa, yana o‘nlab tadqiqotchilar ilmiy izlanish olib bormoqda.

Raqamlarga murojaat qilinsa, 270 dan ortiq ilmiy ish, shulardan 5 ta monografiya, 1 ta oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma, 2 ta darslikning dunyoga kelishi R.Barakayev fenomenining ilmiy sarhisobi naqadar boy va havas qilishga arzirli ekaniga dalolatdir. Olimning ilmiy salohiyati, u yaratgan tadqiqotlarning ilmiy qimmati, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida tutgan betakror o‘rni xususida nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham anchagina ijobiy fikrlar bildirilgan. R.Barakayevni qardosh mamlakatlarda o‘zbek bolalar adabiyotining yetuk bilimdoni, targ‘ibotchisi va tadqiqotchisi o‘laroq yaxshi bilishadi va ehtirom ko‘rsatishadi.

R.Barakayev ilmning yetuklik cho‘qqisiga yuksalgan bo‘lsa ham, tabiatan kamtarin, bag‘rikeng, ochiqko‘ngil va samimiy inson. G‘amxo‘rli, beg‘araz tabiati bilan o‘zi xizmat qilayotgan jamoada, hamkasblari, shogirdlari orasida katta hurmatga sazovordir.

Biz adabiyotshunosligimizning yetakchilaridan biri bo‘lgan Rahmatulla Barakayevga uzoq umr, sihat-salomatlik, ulkan zafarlar tilaymiz. O‘zbek adabiyotshunosligi, xususan, bolalar adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar salmog‘i va sifatini bundan keyin ham boyitishiga astoydil ishonamiz.